



**MINTAQADA TABIIY KAPITALNING IQTISODIY BAHOSI VA UNING KAPITAL
SHAKLLARI TIZIMIDAGI O'RNI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)**

Raximov Faxriddin

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti

ORCID: 0009-0008-1234-5678

faxriddinraximov.uz@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqada tabiiy kapitalning iqtisodiy bahosi hamda uning iqtisodiy, inson va ekologik kapital bilan o'zaro nisbati Xorazm viloyati misolida tahlil qilingan. 2010–2024-yillarda tabiiy kapitalning pulda ifodalangan dinamikasi o'rganilib, statistik tahlil asosida kapitalning to'rt shakli o'rtasidagi tarkibiy o'zgarishlar baholangan. Natijalar tabiiy kapital iqtisodiy qiymatining sezilarli o'sganini, biroq ekologik kapital o'sish sur'ati boshqa kapital shakllaridan ortda qolayotganini ko'rsatadi. Bu iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan muvozanatlashtirish zaruratini dolzarblashtiradi.

Kalit so'zlar: tabiiy kapital, iqtisodiy baho, kapital shakllari, ekologik kapital, inson kapitali, resurs samaradorligi, mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.

**ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ПРИРОДНОГО КАПИТАЛА РЕГИОНА И ЕГО МЕСТО В СИСТЕМЕ
ФОРМ КАПИТАЛА (НА ПРИМЕРЕ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ)**

Рахимов Фахриддин

Ургенчский государственный университет

имени Абу Райхана Беруни

Аннотация. В статье на примере Хорезмской области проанализированы экономическая оценка природного капитала региона и его соотношение с экономическим, человеческим и экологическим капиталом. Изучена стоимостная динамика природного капитала за 2010–2024 годы и на основе статистического и сравнительного анализа оценены структурные изменения между четырьмя формами капитала. Результаты показывают значительный рост экономической ценности природного капитала, однако темпы роста экологического капитала отстают от других форм, что актуализирует необходимость баланса экономического роста с экологической устойчивостью.

Ключевые слова: природный капитал, экономическая оценка, формы капитала, экологический капитал, человеческий капитал, ресурсная эффективность, региональная экономика, устойчивое развитие.

**ECONOMIC VALUATION OF REGIONAL NATURAL CAPITAL AND ITS PLACE IN THE SYSTEM OF
CAPITAL FORMS (THE CASE OF THE KHOREZM REGION)**

Rakhimov Fakhriddin

Urgench State University named after Abu Rayhan Beruni

Abstract. Using the example of the Khorezm region, the article analyzes the economic valuation of regional natural capital and its relationship with economic, human, and environmental capital. The monetary dynamics of natural capital for 2010–2024 are studied, and structural changes among the four forms of capital are assessed through statistical. The results show a significant increase in the economic value of natural capital; however, the growth rate of environmental capital lags behind the other forms, highlighting the need to balance economic growth with environmental sustainability.

Keywords: natural capital, economic valuation, forms of capital, environmental capital, human capital, resource efficiency, regional economy, sustainable development.

Kirish.

Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda tabiiy resurslarni nafaqat iste'mol manbai, balki iqtisodiy qiymatga ega strategik aktiv — tabiiy kapital sifatida baholash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tabiiy kapitalni pulda ifodalash uni iqtisodiy, inson va ishlab chiqarish kapitali bilan bir qatarga qo'yish hamda hududiy rivojlanish qarorlarida hisobga olish imkonini beradi (Helm, 2015). Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkilotining atrof-muhit-iqtisodiy hisob tizimi doirasidagi yondashuvlar tabiiy kapitalni milliy va hududiy boyluk tarkibida baholashni nazarda tutadi (World Bank, 2021a; United Nations, 2014). O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustuvor davlat vazifalaridan biri hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2019).

Xorazm viloyati kabi agrar yo'nalishga ega va ekologik jihatdan sezgir hududda tabiiy kapitalning iqtisodiy o'sish bilan birga qanday o'zgarayotganini baholash alohida ahamiyatga ega. Biroq mavjud amaliyotda hududiy tabiiy kapital ko'pincha alohida natural ko'rsatkichlar orqali baholanib, uning pulda ifodalangan dinamikasi va boshqa kapital shakllari bilan nisbati yetarlicha tahlil qilinmaydi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi — Xorazm viloyati misolida tabiiy kapitalning 2010–2024-yillardagi pulda ifodalangan dinamikasini iqtisodiy, inson va ekologik kapital bilan qiyosiy tahlil qilish hamda kapital shakllari o'rtasidagi tarkibiy nomutanosiblikni (ekologik kapitalning ortda qolishini) aniqlashdan iborat. Tadqiqotning maqsadi tabiiy kapitalning iqtisodiy bahosi va uning kapital shakllari tizimidagi o'rnini baholash asosida hududiy iqtisodiy siyosat uchun xulosalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot obyekti — Xorazm viloyati tabiiy kapitalidir.

Adabiyotlar sharhi.

Tabiiy kapital tushunchasining nazariy asoslari barqaror rivojlanish kontseptsiyasi doirasida shakllantirilgan bo'lib, tabiiy kapital iqtisodiy tizimda inson va ishlab chiqarish kapitali bilan teng darajada muhim aktiv sifatida e'tirof etilgan (Costanza va Daly, 1992).

Helm(2015) tabiiy kapitalni iqtisodiy baholash va uni milliy hisob tizimlariga integratsiya qilish zaruriyatini asoslab bergan. Dasgupta rahbarligida tayyorlangan tadqiqot esa tabiiy kapitalni jamiyat farovonligining asosiy ustuni sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi (Dasgupta, 2021).

Amaliy baholash sohasida Jahon banki tomonidan amalga oshirilayotgan "Millatlar o'zgaruvchan boyligi" tadqiqotlari hamda ekotizim xizmatlarini iqtisodiy baholash yondashuvlari tabiiy kapitalni iqtisodiy va ekologik jihatdan baholashning metodologik asosini ta'minlaydi (World Bank, 2021a; Costanza va boshq., 2017).

Jahon banki tahlillariga ko'ra, tabiiy kapital va ekotizim xizmatlarining qulashi jahon iqtisodiyotiga jiddiy iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin, bu esa uni baholash va boshqarishning iqtisodiy zaruratini ko'rsatadi (World Bank, 2021b). O'zbekiston sharoitida mintaqaviy darajada resurslardan foydalanish samaradorligi va hududiy iqtisodiy tahlil masalalari ham o'rganilmoqda (Xatamov, 2023; Raximov, 2026).

Tabiiy kapitalni miqdoriy baholashda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular orasida resurs zaxiralarini bozor narxlarida kapitallashtirish, ekotizim xizmatlarining qiymatini hisoblash hamda atrof-muhit-iqtisodiy hisob (SEEA) doirasidagi yaxlit baholash usullari keng qo'llaniladi (United Nations, 2014).

Bu yondashuvlar tabiiy kapitalni faqat fizik hajm sifatida emas, balki iqtisodiy qiymatga ega aktiv sifatida ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur usullarni mintaqa darajasida qo'llashda statistik bazaning cheklanganligi va metodologik moslashtirish zarurati muhim metodologik masala bo'lib qolmoqda. Mavjud tadqiqotlarda tabiiy kapitalni baholashning nazariy-uslubiy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, hudud darajasida uni pulda ifodalash va boshqa kapital shakllari bilan qiyosiy dinamikada tahlil qilish masalalari kam o'rganilgan. Mazkur maqola ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili va kapitalni baholash yondashuvlaridan foydalanildi. Tabiiy kapital, iqtisodiy kapital, inson kapitali va ekologik kapital pulda (mlrd AQSH dollarida) ifodalanib, 2010–2024-yillar dinamikasi va ularning o'zaro nisbati tahlil qilindi. Qo'shimcha ravishda tabiiy kapitalni jamg'arishning natural ko'rsatkichlari (yalpi hududiy mahsulot, qayta tiklanuvchi energiya ulushi, melioratsiya holati) 2017–2025-yillar bo'yicha o'rganildi.

Kapital shakllarini pulda baholashda jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan yondashuvlar — resurs zaxiralarini iqtisodiy qiymatda kapitallashtirish, ekotizim xizmatlarining qiymatini hisobga olish hamda Jahon bankining boylik hisobi (wealth accounting) metodologiyasi asos qilib olindi (World Bank, 2021a; United Nations, 2014). Mazkur yondashuvga muvofiq kapital shakllari quyidagicha talqin qilindi va baholandi: tabiiy kapital — yer, suv, agrar va energetik resurslar zaxiralarining iqtisodiy bahosi hamda ekotizim xizmatlari qiymati; iqtisodiy kapital — asosiy vositalar, infratuzilma va ishlab chiqarish fondlarining qiymati; inson kapitali — ta'lim va sog'liqni saqlashga yo'naltirilgan investitsiyalar hamda mehnat salohiyatining qiymati; ekologik kapital — suv, havo va tuproq sifati, bioxilma-xillik holatining qiymati sifatida. Kapital shakllarining pulda ifodalangan qiymatlari rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan baholandi. Tadqiqotning ishonchliligi rasmiy statistik manbalarga tayanish, aniqliligi esa kapital shakllarini yagona metodologik asosda qiyoslash orqali ta'minlandi. Axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining Xorazm viloyati boshqarmasi ma'lumotlari tashkil etdi (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorazm viloyati iqtisodiyoti asosan sug'orma dehqonchilikka ixtisoslashgan bo'lib, yer va suv resurslari tabiiy kapitalning asosiy qismini tashkil etadi. Viloyatning umumiy 608,2 ming gektar yer fondining qariyb 55 foizi qishloq xo'jaligi yerlariga to'g'ri keladi, sug'oriladigan yerlarning 73,6 foizi esa turli darajada sho'rlangan. Suv resurslariga yuqori bog'liqlik va sho'rlanish jarayonlari tabiiy kapitalning sifat ko'rsatkichlarini cheklovchi asosiy omillardir: suvdan samarasiz foydalanish va yer degradatsiyasi tabiiy kapital qiymatini pasaytirs, melioratsiya va suv tejovchi texnologiyalar uni tiklash imkonini beradi. Bunday sharoitda tabiiy kapitalning pulda ifodalangan bahosi hududiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Tabiiy kapitalning kapital shakllari tizimidagi miqdoriy bahosi 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

Xorazm viloyatida kapital shakllarining miqdoriy bahosi (mlrd AQSH dollarida)

Ko'rsatkich	2010 y.	2020 y.	2023 y.	2024 y.
Tabiiy kapital	12,8	18,9	22,4	23,1
Iqtisodiy kapital	10,4	17,6	21,8	23,0
Inson kapitali	8,7	13,2	16,1	16,8
Ekologik kapital	4,1	4,8	5,2	5,3

Manba: rasmiy statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan baholangan (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2025).

Tahlil natijalariga ko'ra, 2010-yilda 12,8 mlrd AQSH dollariga baholangan tabiiy kapital 2024-yilga kelib 23,1 mlrd dollarga yetib, qariyb 1,8 barobarga (180,5 foizga) oshgan. Bu yer, suv, agrar resurslar va qayta tiklanuvchi energiya salohiyatining iqtisodiy bahosi sezilarli ortganini bildiradi. Kapital shakllarining o'zaro dinamikasi 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Xorazm viloyatida kapital shakllarining dinamikasi (2010–2024)

Manba: muallif ishlanmasi.

Kapital shakllarining qiyosiy tahlili muhim tarkibiy o'zgarishlarni ko'rsatadi. Eng yuqori o'sish iqtisodiy kapitalda kuzatilgan: 2010-yildagi 10,4 mlrd dollardan 2024-yilda 23,0 mlrd dollarga yetib, 221,2 foizga oshgan va deyarli tabiiy kapital darajasiga tenglashgan. Bu Xorazm viloyatida iqtisodiyotning tabiatga to'liq bog'liq agrar modeldan sanoat va infratuzilmaga asoslangan diversifikatsiyalashgan modelga o'tayotganini bildiradi. Inson kapitali ham sezilarli o'sgan (8,7 dan 16,8 mlrd dollarga, 193,1 foiz), bu esa resurslardan samarali foydalanish uchun zarur bilim va salohiyat bazasini mustahkamlaydi.

Tahlilning eng muhim natijasi ekologik kapital bilan bog'liq: u eng past sur'atda — 4,1 mlrd dollardan 5,3 mlrd dollarga, atigi 129,3 foizga oshgan. Bu ekologik tiklanish iqtisodiy va infratuzilmaviy o'sishdan sezilarli ortda qolayotganini ko'rsatadi. Xorazm viloyati uchun bu jiddiy ogohlantiruvchi signaldir, chunki Orolbo'yi ta'siri, suv tanqisligi, tuproq sho'rlanishi va iqlim xavflari ekologik kapitalni cheklovchi asosiy omillardir. Bu natija tabiiy kapitalni boshqarishda ehtiyotkorlikni talab etuvchi nazariy qarashlar bilan ham mosdir (Dasgupta, 2021). Tabiiy kapitalni jamg'arishning natural ko'rsatkichlari ham ushbu xulosalarni tasdiqlaydi (2-jadval). Viloyat yalpi hududiy mahsuloti 2017–2025-yillarda barqaror o'sgan, qayta tiklanuvchi energiya ulushi 1,8 foizdan 21,8 foizgacha (qariyb 12 barobar) ko'tarilgan, meliorativ holati yaxshilangan maydon esa 52,4 ming gektardan 75,6 ming gektargacha kengaygan.

2-jadval

Xorazm viloyatida tabiiy kapitalni jamg'arish ko'rsatkichlari (2017–2025)

Yil	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd so'm	Qayta tiklanuvchi energiya ulushi, %	Meliorativ maydon, ming ga
2017	13 548,2	1,8	52,4
2019	22 262,8	3,1	57,6
2021	30 907,3	6,8	63,7
2023	45 358,6	13,2	69,8
2025	62 987,5	21,8	75,6

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya ulushining 2017–2025-yillarda 1,8 foizdan 21,8 foizgacha, ya'ni qariyb 12 barobar oshishi ekologik kapitalga bo'lgan bosimni yumshatuvchi ijobiy qarama-qarshi tendensiya sifatida baholanadi. Bu "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining amaliyotga joriy etilayotganini va kelgusida ekologik kapital o'sishini tezlashtirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Biroq mavjud sur'at ekologik kapitaldagi ortda qolishni to'liq qoplash uchun yetarli emas, bu esa maqsadli ekologik investitsiyalarni kuchaytirishni taqozo etadi (Dasgupta, 2021).

Olingan natijalar tabiiy kapitalni hududiy iqtisodiy siyosatga integratsiya qilish zaruratini ko'rsatadi. Jahon banki va SEEA yondashuvlariga muvofiq, tabiiy kapitalni milliy va hududiy hisob tizimlarida muntazam baholash iqtisodiy qarorlarni yanada asosli qabul qilish imkonini beradi (World Bank, 2021a; United Nations, 2014). Xorazm viloyati misolida bu yondashuv kapital shakllari o'rtasidagi nomutanosiblikni erta aniqlash va resurslarni ekologik tiklanish foydasiga qayta taqsimlash uchun analitik asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy kapitalning tabiiy kapital darajasiga tenglashuvi muhim tarkibiy o'zgarish sifatida alohida e'tiborni talab etadi. Bir tomondan, bu hududda sanoat, infratuzilma va ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar hisobiga moddiy bazaning kengayganini va iqtisodiyotning diversifikatsiyalashuvini bildiradi. Boshqa tomondan, iqtisodiy kapitalning jadal o'sishi tabiiy resurslarga bo'lgan bosimni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli iqtisodiy o'sish tabiiy kapital tiklanishi bilan muvozanatda bo'lishi, ya'ni qo'shimcha qiymat tabiiy resurslarni tugatish hisobidan emas, balki ulardan samarali foydalanish asosida yaratilishi lozim.

Inson kapitalining sezilarli o'sishi tabiiy kapitaldan samarali foydalanishning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Bilimli va malakali aholi resurslarni boshqarish, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish va resurs tejankor ishlab chiqarishni ta'minlash imkonini beradi. Shu ma'noda inson kapitali iqtisodiy o'sishni ekologik kapitalni qisqartirmasdan amalga oshirishning institutsional asosini yaratadi.

Tahlil natijalari, shuningdek, resurs samaradorligining yaxshilanish belgilarini ko'rsatadi: meliorativ holati yaxshilangan maydonning 52,4 ming gektardan 75,6 ming gektargacha kengayishi yer unumdorligini oshirish va suvdan oqilona foydalanishga, qayta tiklanuvchi energiya ulushining o'sishi esa energiya manbalarini diversifikatsiyalashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar tabiiy kapitalni jamg'arish resurslarni ko'proq sarflash emas, balki ularning sifatini tiklash va uzoq muddatli iqtisodiy foydaliligini ta'minlash orqali kechayotganini tasdiqlaydi.

Resurslardan foydalanish natijadorligini aks ettiruvchi qo'shimcha ko'rsatkichlar dinamikasi ham ijobiy tendensiyaning tasdiqlaydi (3-jadval). Xususan, 1 gektar yerdan olinadigan mahsulot qiymati va g'alla hosildorligining o'sishi yer resurslaridan intensiv va samarali foydalanish kuchayganini ko'rsatadi, biroq suv sarfining bir vaqtning o'zida ortishi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qalayotganini bildiradi.

3-jadval

Xorazm viloyatida resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari (2022–2024)

Ko'rsatkich	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Sanoat mahsuloti, mlrd so'm	9 342,8	10 871,7	13 018,0
Qishloq xo'jaligi mahsuloti, mlrd so'm	14 445,3	16 311,4	17 982,9
G'alla hosildorligi, ts/ga	49,7	50,6	52,1
1 ga yerdan mahsulot qiymati, mln so'm	101,2	131,9	142,8
Suv sarfi, ming m ³ /ga	3 850,8	3 891,6	4 076,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shu tariqa, 2010–2024-yillarda Xorazm viloyatida kapitalning barcha shakllari o'sgan, biroq o'sish sur'ati turlicha bo'lgan. Kapital shakllari o'rtasidagi nomutanosiblik, ya'ni ekologik kapitalning ortda qolishi, hududda iqtisodiy modernizatsiya jadal kechayotganini, ammo ekologik barqarorlikni ta'minlash qo'shimcha choralar talab etishini ko'rsatadi. Shu sababli kelgusida iqtisodiy kapitalni ko'paytirish ekologik kapital hisobidan emas, balki inson kapitali va innovatsion texnologiyalar orqali, tabiiy kapitaldan foydalanishni esa resurs sarfiga emas, resurs samaradorligiga asoslangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar.

Birinchidan, Xorazm viloyatida tabiiy kapitalning iqtisodiy bahosi 2010–2024-yillarda 12,8 mlrd dollardan 23,1 mlrd dollarga (qariyb 1,8 barobar) oshib, tabiiy resurslar hududiy iqtisodiyot uchun an'anaviy resurs bazasidan strategik aktivga aylanib borayotganini ko'rsatdi.

Ikkinchidan, kapital shakllarining qiyosiy tahlili eng yuqori o'sish iqtisodiy kapitalda (221,2 foiz), eng past o'sish esa ekologik kapitalda (129,3 foiz) kuzatilganini aniqladi. Bu tarkibiy nomutanosiblik iqtisodiy o'sish bilan ekologik tiklanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Uchinchidan, tabiiy kapitalni jamg'arishni resurs sarfini ko'paytirish emas, balki resurs samaradorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalar, melioratsiya, qayta tiklanuvchi energiya va yer rekultivatsiyasini rag'batlantirish orqali amalga oshirish tavsiya etiladi.

To'rtinchidan, hududiy iqtisodiy siyosatda tabiiy kapitalni pulda baholash va uni kapital shakllari tizimida muntazam monitoring qilish iqtisodiy qarorlarni asosli qabul qilish hamda ekologik-iqtisodiy nomutanosibliklarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Costanza, R. va boshq. (2017) *Twenty years of ecosystem services: How far have we come and how far do we still need to go?*, *Ecosystem Services*, 28, pp. 1–16.

Costanza, R. va Daly, H. (1992) *Natural Capital and Sustainable Development*, *Conservation Biology*, 6(1), pp. 37–46.

Dasgupta, P. (2021) *The Economics of Biodiversity: The Dasgupta Review*. London: HM Treasury.

Helm, D. (2015) *Natural Capital: Valuing the Planet*. New Haven: Yale University Press.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (2025) *Xorazm viloyati boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari*. Urganch.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2019) *2019–2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida*, PQ-4477-son Qaror. www.lex.uz

Raximov, F.Sh. (2026) *Tabiiy kapitalni jamg'arish samaradorligini baholash uslubiyoti*, *Marketing jurnali*, 4-son, B. 151–163.

United Nations (2014) *System of Environmental-Economic Accounting 2012 — Central Framework*. New York: United Nations.

World Bank (2021a) *The Changing Wealth of Nations 2021: Managing Assets for the Future*. Washington, DC: World Bank.

World Bank (2021b) *The Economic Case for Nature*. Washington, DC: World Bank.

Xatamov, N.O. (2023) *O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligi tahlili*, *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 4-son, B. 216–221.